



Sanoat ishlab chiqarish

RAQAMLAR:


- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **13230,3 mlrd so'mni**, o'sish **25,8 %ni** tashkil etdi.
- Istemol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **9439,6 mlrd so'mni**, o'sish **30,3 %ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – **71,3 %**.
- Sanoatda kichik biznesning ulushi – **34,4 %**.

Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jixatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 2017 yilning yanvar–dekabr oylarida **13230,3 mlrd. so'mlik** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, o'sish sur'ati 2016 yilning tegishli davriga **125,8 foizni** tashkil etdi.

Hisobot davrida **9439,6 mlrd. so'mlik** iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2016 yil yanvar-dekabrga nisbatan **130,3 foizni** tashkil etdi. Jumladan, **1468,9 mlrd. so'mlik** oziq-ovqat mahsulotlari, **53,5 mlrd. so'mlik** aroq-vino mahsulotlari, **7917,1 mlrd. so'mlik** nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, 2016 yil yanvar-dekabrga nisbatan mos ravishda oziq-ovqat mahsulotlari **99,7 foiz** va nooziq-ovqat mollari **138,7 foiz** tashkil etdi.

1-diagramma

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining tumanlardagi ulushi



Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish	9439,6	130,3
--	---------------	--------------

shu jumladan:


oziq-ovqat tovarlari	1468,9	99,7
nooziq-ovqat tovarlari	7917,1	138,7

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish xajmiga nisbatan, foizda)

2 diagramma


2016 yil yanvar-dekabr

- Oziq ovqat mahsulotlari
- Nooziq ovqat mahsulotlari




2017 yil yanvar-dekabr

- Oziq ovqat mahsulotlari
- Nooziq ovqat mahsulotlari



Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi, kichik biznes tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2016 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **1,0** foizga oshishini ta'minlandi. Jami sanoatda kichik biznesning ulushi **34,4** foizni tashkil etdi.

Kichik biznesdagi ulushi



2017 yil yanvar-sentyabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	13230,3	125,8
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	101,1	107,0
<i>shu jumladan:</i>		
neft- gaz qazib olish	67,2	106,1
tog'-kon sanoatining boshqa faoliyati	19,6	113,1
tog'-kon sanoati sohasida xizmat ko'rsatish	14,2	103,7
Qayta ishlash sanoati	12600,5	126,7



	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
<i>shu jumladan:</i>		
oziq- ovqat mahsulotlari, ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	1778,6	97,7
paxtani qayta ishlash, to'qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	2692,1	102,0
yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	13,0	107,3
yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	7,9	111,5
mebel ishlab chiqarish	174,8	103,0
kimyoviy mahsulotlari, rezina va pastmassa buyumlar ishlab chiqarish	238,3	122,3
boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	175,4	112,9
farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish	4,1	116,4
metallurgiya sanoati	5,5	112,9
tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	211,6	108,8
elektron va optika, elektr tovarlar ishlab chiqarish	329,8	113,9
avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish hamda mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	6787,2	181,2
boshqar turdagi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish	182,2	102,7
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	501,9	114,2
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	26,8	118,0
suv ta'minoti, oqava suv	21,7	113,6
chiqindilar yig'ish, utilizatsiya qilish va boshqa maxsulotlar	5,1	146,9

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

4-diagramma

2016 yil yanvar-dekabr

2017 yil yanvar-dekabr



- Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- Qayta ishlash sanoati
- Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish – sanoat ishlab chiqarishi hajmlari oʻsishining omillaridan biridir

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmlarining oʻsishi bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur boʻlgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni oʻsishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko`rsatkichlari

	2016 y. yanvar–dekabr	2017 y. yanvar–dekabr
Loyihalar soni,birlik	47	54
Korxonalar soni,birlik	30	33
Ishlab chiqarish hajmi,mlrd.so`m	547,9	1844,0
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming AQSh doll.	12,6	45,6
Yaratilgan yangi ish o`rinlari,birlik	75	34